

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

IKKI MADANIYAT CHORRAHASIDA: O'ZBEK-KOREYS NIKOH MIGRATSIYASINING SHAKLLANISH TARIXI

Raximberdiyev Sardorbek Bekturod o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali, katta o'qituvchi.

e-mail: sardorbek.rakhimberdiyev@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-4129-9386>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada o'zbek ayollarining Koreya Respublikasiga nikoh migratsiyasini shakllantiruvchi tarixiy, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional omillar tahlil qilinadi. 1980-yillarning oxiri va 1990-yillardan boshlab Koreya Respublikasida xalqaro nikohlar sonining ortishi qishloq hududlarida nikoh yoshidagi ayollar sonining kamayishi, transmilliy nikohlarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi, xalqaro nikoh agentliklari faoliyati hamda nikoh migratsiyasining bosqichma-bosqich institutsionallashuvi bilan bog'liq holda yoritiladi.

Kalit so'zlar: nikoh migratsiyasi, O'zbekiston, Koreya Respublikasi, transmilliy nikoh, nikoh agentliklari, F-6 vizasi, demografik nomutanosiblik, diaspora, transmilliy tarmoqlar.

НА ПЕРЕКРЁСТКЕ ДВУХ КУЛЬТУР: ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ УЗБЕКСКО-КОРЕЙСКОЙ БРАЧНОЙ МИГРАЦИИ

Рахимбердиев Сардорбек Бекмурод угли

Наманганский филиал Международного университета Кимё в Ташкенте, старший преподаватель.

Аннотация.

В данной статье анализируются исторические, демографические, социально-экономические и институциональные факторы, определяющие миграцию узбекских женщин в Республику Корея в целях заключения брака. Рост числа международных браков в Республике Корея с конца 1980-х и 1990-х годов объясняется сокращением числа женщин брачного возраста в сельской местности, растущим спросом на транснациональные браки, деятельностью международных брачных агентств и постепенной институционализацией миграции в целях заключения брака.

Ключевые слова: миграция через брак, Узбекистан, Республика Корея, транснациональные браки, брачные агентства, виза F-6, демографический дисбаланс, diaspora, транснациональные сети.

AT THE CROSSROADS OF TWO CULTURES: THE HISTORY OF THE FORMATION OF UZBEK-KOREAN MARRIAGE MIGRATION

Raximberdiyev Sardorbek Bekturod o'g'li

Namangan Branch of Kimyo International University in Tashkent, Senior Lecturer.

Abstract.

This article analyzes the historical, demographic, socioeconomic, and institutional factors shaping the migration of Uzbek women to the Republic of Korea for marriage. The rise in international marriages in the Republic of Korea since the late 1980s and 1990s is explained by the declining number of women of marriageable age in rural areas, the growing demand for transnational marriages, the activities of international marriage agencies, and the gradual institutionalization of marriage migration.

Keywords: migration through marriage, Uzbekistan, Republic of Korea, transnational marriages, marriage agencies, F-6 visa, demographic imbalance, diaspora, transnational networks.

Kirish. XXI asr butun dunyo bo'ylab globallashuv va transmilliy migratsiya jarayonlarining sezilarli darajada tezlashishi bilan tavsiflanadi. Mehnat resurslarining erkin harakatlanishi, xalqaro ta'lim almashinuvi dasturlari va nikoh orqali shakllanayotgan transmilliy oilalar natijasida turli mamlakatlarda yangi diaspora guruhlari vujudga kelmoqda. Bunday sharoit turli madaniy muhitlarda yashovchi millat vakillari orasida etnik va madaniy o'ziga xoslik, ijtimoiy-madaniy moslashuv hamda milliy qadriyatlarini saqlash masalalarini chuqur o'rganishni talab qiladi.

Nikoh migratsiyasi — bu nikoh munosabatlari tufayli shaxsning yashash joyi o'zgarishi bilan tavsiflanadigan migratsiya jarayonidir. U mamlakat ichida mintaqalararo migratsiya shaklida ham, xalqaro nikohlar orqali boshqa davlatga ko'chib o'tish shaklida ham sodir bo'ladi [1; B.5.]. Mehnat yoki ta'lim migratsiyasidan farqli o'laroq, nikoh migratsiyasi shaxsiy munosabatlar, oilaviy strategiyalar va gender munosabatlari bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun

uni nafaqat individual tanlov sifatida, balki demografik ehtiyojlar, ijtimoiy tuzilmalar va institutsional mexanizmlar bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida ham ko'rib chiqish lozim [2; B.100.].

O'zbek ayollarining Koreya Respublikasiga nikoh orqali migratsiya qilish haqidagi qarorlari faqat shaxsiy sabablar bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu qarorlarga qabul qiluvchi jamiyatdagi nikoh bozorining demografik va tarkibiy xususiyatlari, vositachi institutlar, transmilliy tarmoqlar, shuningdek, jo'natuvchi jamiyatdagi iqtisodiy, oilaviy va xavfsizlik bilan bog'liq omillar majmuasi ta'sir ko'rsatadi. Sotsiologik va etnografik materiallar nikoh migratsiyasi shaxsiy tanlov doirasidan tashqariga chiqib, demografik nomutanosiblik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, nikoh agentliklari faoliyati, transmilliy ijtimoiy tarmoqlar va gender stereotiplari ta'sirida shakllanadigan murakkab ijtimoiy jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu maqolaning maqsadi dissertatsiyada taqdim etilgan ilmiy va dala materiallari asosida o'zbek ayollarining Koreya Respublikasiga nikoh migratsiyasi tarixini, uning demografik, institutsional, gender va transmilliy omillarini yoritishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va tizimli yondashuvlar, etnosotsiologik tadqiqot usullari hamda antropologik kuzatuvlardan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Nikoh bilan bog'liq migratsiyani tahlil qiluvchi tadqiqotlarda ushbu jarayonning gender jihatlari, kundalik hayotdagi moslashuv amaliyotlari va madaniy o'ziga xoslik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. G. Kim va M. Kilkey Koreyadagi nikoh migratsiyasi siyosatini ijtimoiy investitsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilgan bo'lsa, J. Kim, S.-B. Yang va A. R. Torneo xalqaro nikohlardagi gender tengsizligiga e'tibor qaratgan. Y.-J. Li, D.-H. Seol va S.-N. Cho esa xalqaro nikohlarda millat va etnik kelib chiqish omillarining ahamiyatini ko'rsatgan [3; B.23–38; 4; B.14–32; 5; B.165–182].

O. S. Odilovanning tadqiqotida migrantlarning yangi ijtimoiy-madaniy muhitga ijtimoiy-psixologik moslashuvi stress, madaniy va lingvistik farqlar muhim rol o'ynaydigan murakkab jarayon sifatida tavsiflangan [6; B.382.]. Sh. N. Yun esa globallashtirish sharoitida o'zbek va koreys xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy institutlar va milliy an'analarning o'zgarishini tarixiy, etnografik va qiyosiy tahlil asosida o'rgangan [7; B.5–15.].

Ushbu tadqiqotda nikoh migratsiyasini tahlil qilishda makro, mezo va mikrodarajadagi omillar o'rganildi. Makrodarajada Koreya Respublikasidagi demografik qarish, tug'ilish darajasining pasayishi, urbanizatsiya va hududiy gender nomutanosibligi tahlil qilindi. Mezodarajada nikoh agentliklari, diniy vositachilar, diaspora hamda raqamli tarmoqlarning roli o'rganildi. Mikrodarajada esa ayollarning iqtisodiy barqarorlik, xavfsizlik, oilaviy farovonlik va farzandlar kelajagi bilan bog'liq motivatsiyalari tahlil qilindi.

Tadqiqotning empirik asosini Koreya Respublikasi va O'zbekistonda o'tkazilgan dala tadqiqotlari, sotsiologik so'rovnomalar va intervyular tashkil etdi. Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlarida, shuningdek, Koreya Respublikasining Gangwon, Gyeonggi va Chungnam hududlarida to'plangan dala ma'lumotlaridan foydalanildi. Mazkur empirik materiallar respondentlarning real hayotiy tajribalariga tayangan holda nikoh migratsiyasini shakllantiruvchi omillar va mexanizmlarni kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Muhokama.

Koreya Respublikasida xalqaro nikohlarning ko'payishi 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarda boshlangan bo'lib, bu jarayon mamlakatdagi demografik inqiroz, urbanizatsiya va geografik nomutanosiblik bilan uzviy bog'liq edi. Tez sanoatlashtirish davrida mahalliy aholining yirik shaharlarga ko'chishi kuchaydi va qishloq joylarda nikoh yoshidagi ayollar soni keskin kamaydi. Bu esa qishloq hududlarida yashovchi erkaklar uchun jiddiy ijtimoiy muammoni yuzaga keltirdi [8; B.15.].

Koreyada aholining qarishi va tug'ilish darajasining muntazam ravishda pasayib borishi nikoh migratsiyasiga olib keluvchi asosiy tarkibiy omillardan biriga aylandi. 65 yosh va undan katta yoshdagi aholining ulushi 1960-yildagi 3,3 foizdan 2021-yilda 16,5 foizgacha oshdi [9; B.2.]. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida ayollarning oliy ma'lumot olish imkoniyatlarining kengayishi, mehnat bozoridagi ishtiroki hamda iqtisodiy mustaqilligining oshishi bilan an'anaviy nikoh va oila modeli sezilarli darajada o'zgardi. Nikoh yoshining kechikishi, reproduktiv strategiyalarning o'zgarishi hamda kechiktirilgan onalikning keng tarqalishi demografik muvozanatga ta'sir ko'rsatdi [10; B.5.]. Shu nuqtayi nazardan, transmilliy nikoh mahalliy demografik muammolarning muqobil yechimlaridan biriga aylandi.

Markaziy Osiyodan, jumladan, O'zbekistondan kelgan ayollar mezbon jamiyatdagi nikoh bozorida yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldiruvchi subyektlarga aylandilar. Dala tadqiqotlariga ko'ra, xalqaro nikohlarning 80 foizdan ortig'i qishloq joylarda yashovchi koreys erkaklari bilan tuzilgan. Shunga o'xshash nikohlarda Xitoy, Vetnam, Filippin, Tailand va boshqa mamlakatlardan kelgan ayollar ham ishtirok etgan. Erkaklar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik ham nikoh migratsiyasining o'sishiga ta'sir ko'rsatgan. Anketa so'rovi ma'lumotlariga ko'ra, turmush qurgan migrant ayollarning 76 foizi nikohdan keyin umidsizlik holatini boshdan kechirgan. Bu ularning erlarining moliyaviy ahvoli, Koreya qishloqlaridagi yashash sharoitlari, turmush tarzi va kundalik urf-odatlar haqidagi tasavvurlari bilan real vaziyat o'rtasidagi farqlar bilan bog'liq edi. Ko'pgina ayollarning qishloq joylarda yashashda davom etishi ular kutganidan farqli hayot tajribasini yuzaga keltirgan [18].

2000-yillarning dastlabki o'n yilligida millatlararo nikohlarning keskin o'sishi Koreya jamiyatining etnik tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va ko'p millatli oilalar sonining ortishiga olib keldi. Biroq migrant ayollar ko'pincha "moslashuvchan", "kam talabchan", "oilaga yo'naltirilgan" va "itoatkor" sifatida stereotiplashtirilgan. Bunday stereotiplar gender tengsizligini kuchaytirishi va nikoh migratsiyasi sharoitida ayollarning shaxsiy erkinligini cheklashi mumkin [11; B.49–50.].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, migrant ayollarning oilaviy muhitga moslashish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklaridan biri qaynota-qaynonalar bilan munosabatlardir. Madaniy va lingvistik farqlar mavjud nizolarni yanada kuchaytirishi mumkin. Ayrim qaynota-qaynonalar immigrant kelinlarning vatani va madaniyati haqida yetarli

ma'lumotga ega bo'lmay, ularni iqtisodiy jihatdan nochor mamlakatlardan kelgan deb tasavvur qiladilar. Koreys tilini yetarli darajada bilmaslik esa migrant ayollarning kundalik hayotdagi mustaqilligini cheklaydi, ayrim hollarda ularga "bolalardek" munosabatda bo'linishiga va moliyaviy masalalarda ishonch bildirilmasligiga olib keladi.

Chet ellik migrant ayollar va ularning koreys turmush o'rtoqlari o'rtasidagi yosh hamda ta'lim darajasidagi farqlar ham bu jarayonda muhim omil hisoblanadi. Dala tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, ayollarning nikohga kirishdagi o'rtacha yoshi 37,3 yoshni, koreys kuyovlarining o'rtacha yoshi esa 47,8 yoshni tashkil etgan [20]. Bundan tashqari, ayollarning 90 foizi o'rta maktab ma'lumotiga ega bo'lgan, mahalliy erkaklarning 80 foizdan ortig'i esa kamida o'rta maktab yoki oliy ma'lumotga ega bo'lgan. Tadqiqotda ta'lim darajasining pastligi va iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi ayrim ayollarning chet elliklar bilan turmush qurish haqidagi qarorlariga ta'sir qiluvchi omillar sifatida qayd etilgan [19].

Hukumat siyosati va immigratsiya qonunchiligi nikoh migratsiyasining shakllanishida alohida rol o'ynaydi. Nikoh vizalari, doimiy yashash huquqi va fuqarolikni olish mexanizmlari migratsiyani rag'batlantiruvchi yoki cheklovchi omillarga aylangan. Huquqiy maqomning nikoh barqarorligi bilan bog'lanishi migrant ayollarning ijtimoiy zaifligini oshirishi mumkin. 1999-yilda nikoh migratsiyasi agentliklarining tashkil etilishi hamda 2007-yilda maxsus F-6 nikoh vizasining joriy etilishi Koreyada nikoh migratsiyasining institutsional rivojlanishidagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi [12; B.11.]. Ushbu siyosiy va institutsional o'zgarishlar natijasida Janubi-Sharqiy Osiyo, Xitoy va Rossiyadan kelgan migrantlarga berilgan F-6 vizalari soni sezilarli darajada oshdi [12; B.8.]. O'zbek ayollari ham nikoh orqali Koreyada yashash imkoniyatiga ega bo'ldilar, keyinchalik doimiy yashash uchun ruxsatnomalar va tibbiy sug'urta olish hamda ko'p madaniyatli oilalarni qo'llab-quvvatlash markazlari xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Xalqaro nikoh agentliklari nikoh migratsiyasi sohasidagi eng muhim vositachi institutlardan biriga aylandi. Ular tanishuvlarni tashkil qilish, hujjatlarni rasmiylashtirish, til va madaniy treninglarni o'tkazish hamda nikohdan keyingi jarayonlarni boshqarish orqali transmilliy nikohni professionalashtirdilar [13; B.37.]. Natijada nikoh shaxsiy munosabatlar doirasidan chiqib, institutsional va iqtisodiy jarayonga aylandi. KOSIS ma'lumotlariga ko'ra, Koreya Respublikasida aralash nikohga kirgan migrant ayollarning umumiy soni 123 000 nafardan 144 000 nafargacha ko'paydi. Shu bilan birga, o'zbek kelinlari sonida kamayish kuzatildi: 2012-yildagi 365 nafardan 2024-yilda 171 nafargacha qisqardi. Ushbu tadqiqotda mazkur pasayish Koreyadagi talablarning qat'iylashuvi, O'zbekistondagi ayollar orasida ta'lim va ijtimoiy faollikning oshishi, mehnat migratsiyasi strategiyalarining kengayishi hamda COVID-19 pandemiyasi kabi tashqi omillar bilan bog'lanadi.

Nikoh agentliklari ko'pincha o'zbek ayollarini "itoatkor", "oilaparvar", "an'anaviy qadriyatlarga sodiq" va "moslashuvchan" deb reklama qiladilar. Bunday tasvirlar gender stereotiplarini kuchaytiradi va ayollarning shaxsiy erkinligini ikkinchi darajaga tushiradi. Koreys kuyovlarning ehtiyojlari va kutishlari ustuvor ahamiyat kasb etib, nikoh teng munosabat emas, balki "moslik"ka asoslangan tanlov shakliga aylantiriladi.

Nikoh agentliklari orqali tuzilgan nikohlarning 94 foizi moliyaviy to'lovlarni o'z ichiga oladi va ularning aksariyati erkaklar tomonidan qoplanadi. Nikohlarning 45 foizi diniy tashkilotlar orqali tuziladi va bunday holatlarda ham to'lov amalga oshirilgan. Diniy tashkilotlar orqali tuzilgan nikohlarning 27 foizida, nikoh agentliklari orqali tuzilgan nikohlarning esa 17 foizida juftliklar nikohdan oldin uchrashmagan [13; B.39.].

Koreyaga turmushga chiqish maqsadida borgan o'zbek ayollari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, respondentlarning 90 foizi ixtisoslashgan nikoh agentliklari orqali nikoh tuzgan, qolgan 10 foizi esa ta'lim migratsiyasi davomida tanishib, mahalliy aholiga turmushga chiqqan. Ushbu natija nikoh migratsiyasi jarayonida vositachi institutlarning muhim rolini ko'rsatadi.

Agentliklar orqali transmilliy nikohni tashkil etish bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchidan, huquqiy asos yaratiladi va agentlikka dastlabki depozit to'lanadi. Keyin kuyovning bo'lajak kelin bilan uchrashishi uchun safar tashkil etiladi, uchrashuvlar muvofiqlashtiriladi, aviachiptalar bron qilinadi va viza masalalarida yordam ko'rsatiladi. Agar tomonlarning manfaatlari o'zaro mos kelsa, nikohdan oldingi kelishuv tuzilishi mumkin. Koreyalik kuyov o'z mamlakatiga qaytib, rasmiy nikoh guvohnomasini olgandan so'ng, turmush o'rtog'ini Koreyaga taklif qilish huquqiga ega bo'ladi.

Ilgari Koreyaga borgan ayollar tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy tarmoqlar yangi migratsiya qarorlarini qabul qilishda ma'lumot, maslahat va amaliy yordam manbai bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tarmoqlar nikoh migratsiyasi jarayonini xavfli individual qaror sifatida emas, balki "tasdiqlangan yo'l" sifatida targ'ib qilishi mumkin. Muvaffaqiyatli tajribalarning namunali tarzda taqdim etilishi, muammoli vaziyatlarning esa yetarlicha muhokama qilinmasligi migratsiya qarori haqida bir tomonlama ijobiy tasavvur shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Diaspora tarmoqlari Koreyaga borgan ayollarga turar joy, hujjatlarni rasmiylashtirish, til muammolari va kundalik ijtimoiy moslashuv bilan bog'liq masalalarda yordam beradi. Shu bilan birga, diaspora ichki nazorat va ijtimoiy bosim manbaiga aylangan hollarda ayollarning shaxsiy erkinligi cheklanishi mumkin.

Sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi koreys diasporasi nikoh orqali migratsiya yo'llarining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Nikoh shartnomalari asosida Xitoy va O'zbekistondan Koreyaga kelgan xorijiy kelinlar orasida Koryo-in va Chosunjeok oilalari vakillari ham mavjud. Sobiq Sovet Ittifoqi hududida yashovchi Koryo-in ayollari uchun nikoh Koreyaga qaytishning qulay va tezkor usullaridan biri sifatida qaralgan [14; B.215.].

So'nggi yillarda ijtimoiy media va raqamli platformalar nikohga asoslangan migratsiyaning shakllanishida tobora muhim rol o'ynamoqda. Tanishuv saytlari, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor xabar almashish ilovalari to'g'ridan-to'g'ri transmilliy aloqalarni osonlashtiradi. Raqamli platformalarda Koreya ko'pincha iqtisodiy farovonlik, xavfsizlik va barqarorlik maskani sifatida tasvirlanadi. Migrant ayollar orasida "muvaffaqiyatli hayot" tasvirlarining tarqalishi nikoh orqali migratsiyani idealizatsiya qilishi mumkin.

Biroq o'zbek ayollarining nikoh orqali migratsiya qilish qarori ko'pincha iqtisodiy, ta'limiy, ijtimoiy va xavfsizlik omillari bilan bog'liq ongli hamda strategik tanlov hisoblanadi. Mahalliy mehnat bozoridagi cheklangan imkoniyatlar, ish o'rinlarining beqarorligi va past daromadlar ayrim ayollarni uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlaydigan muqobil yo'llarni izlashga undaydi. Bunday sharoitda nikoh orqali migratsiya qisqa muddatli daromad manbai emas, balki barqaror turmush strategiyasi sifatida qabul qilinadi [15; B.100.].

An'anaviy ijtimoiy muhitda nikoh va oila barqarorligi ayolning ijtimoiy mavqei bilan bog'liq muhim me'yorlar hisoblanadi. Ota-onalar va yaqin qarindoshlarning umidlari, iqtisodiy yordam kutish yoki ijtimoiy obro' bilan bog'liq omillar nikoh migratsiyasini rag'batlantirishi mumkin. Shunday qilib, nikoh migratsiyasi ayrim hollarda shaxsiy qaror emas, balki oilaviy strategiya sifatida shakllanadi.

Xavfsizlik motivi nikoh migratsiyasi to'g'risida qaror qabul qilishda alohida o'rin tutadi. Qabul qiluvchi jamiyatdagi huquqiy himoya va ijtimoiy barqarorlik haqidagi tasavvurlar ayollarda ishonch uyg'otadi. Biroq yashash maqomining nikoh barqarorligi bilan bog'liqligi yangi huquqiy xavflarni ham yuzaga keltiradi. Shuning uchun xavfsizlik motivi, bir tomondan, himoya va barqarorlikka intilish, ikkinchi tomondan esa huquqiy qaramlik xavfi bilan tavsiflanadi.

Nikoh migratsiyasining kuchli motivlaridan biri farzandlar kelajagi haqidagi tasavvurlardir. Yuqori sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash tizimidan foydalanish imkoniyati, xavfsiz ijtimoiy muhit va keng ijtimoiy imkoniyatlar farzandlar uchun "yaxshi kelajak" modelini shakllantiradi [15; B.100.]. Shu nuqtayi nazardan, nikoh migratsiyasi nafaqat individual hayot yo'li, balki keyingi avlod manfaatlariga yo'naltirilgan oilaviy strategiya sifatida ham namoyon bo'ladi.

Natijalar.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek ayollarining Koreyaga turmushga chiqish maqsadidagi migratsiyasi tarixan bir-biri bilan bog'liq bir qancha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarda tezkor urbanizatsiya hamda qishloq ayollarining Koreya shaharlariga ko'chib o'tishi qishloq hududlarda nikoh yoshidagi ayollar sonining kamayishiga olib keldi. Bu holat chet ellik kelinlarga bo'lgan talabni oshirdi hamda transmilliy nikohlar uchun demografik asos yaratdi.

Ikkinchidan, Koreya jamiyatining qarishi va tug'ilish darajasining pasayishi xalqaro nikohlarni demografik muammolarni yumshatish usullaridan biriga aylantirdi. Dala ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, xalqaro nikohlarning 80 foizdan ortig'i qishloq joylarda yashovchi koreys erkaklari bilan tuzilgan. Bu ko'rsatkich nikoh migratsiyasining hududiy va gender xususiyatlarini aniq namoyon etadi [17; 18; 19].

Uchinchidan, 1999-yilda nikoh migratsiyasi bilan shug'ullanuvchi agentliklarning tashkil etilishi hamda 2007-yilda F-6 vizasining joriy etilishi ushbu jarayonning institutsionallashtirishiga xizmat qildi. Nikoh agentliklari tanishuv, hujjatlarni rasmiylashtirish, sayohat, viza olish va nikohdan keyingi migratsiya bosqichlarini boshqaruvchi vositachilarga aylandi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, O'zbekistondan kelgan respondentlarning 90 foizi ixtisoslashgan agentliklar orqali nikohga kirgan.

To'rtinchidan, agentliklar orqali tuzilgan nikohlarning 94 foizida moliyaviy to'lov amalga oshirilgani, diniy vositachilik orqali tuzilgan nikohlarning ham ma'lum qismida to'lov mavjudligi nikoh institutining bozor mexanizmlari bilan bog'langanini ko'rsatadi. O'zbek ayollariga nisbatan "oilaparvar", "itoatkor", "an'anaviy qadriyatlarga sodiq" kabi stereotiplar esa ushbu bozorning genderga asoslangan ramziy mexanizmlaridan biri sifatida shakllangan.

Beshinchidan, nikoh migratsiyasida transmilliy ijtimoiy tarmoqlar muhim o'rin egallaydi. Avval Koreyaga ko'chib borgan ayollar yangi migrantlar uchun axborot, maslahat va amaliy yordam manbaiga aylanadi. Raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar ushbu aloqalarni kengaytirib, Koreyadagi hayot haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Natijada nikoh migratsiyasi individual qaror emas, balki diaspora, qarindoshlik va raqamli tarmoqlar orqali takror ishlab chiqariladigan transmilliy jarayon tusini oladi.

Oltinchidan, o'zbek-koreys nikoh migratsiyasining shakllanishi faqat qabul qiluvchi jamiyatdagi demografik ehtiyojlar bilan emas, balki O'zbekistondagi oilaviy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan ham bog'liq. Iqtisodiy barqarorlikka intilish, oilaviy maqom, xavfsizlik hamda farzandlar kelajagi haqidagi tasavvurlar ayollarning migratsion qarorlarida muhim o'rin tutadi.

Yettinchidan, nikoh migratsiyasi ikki madaniyat o'rtasida yangi transmilliy oilaviy makon yaratadi. O'zbek ayollari koreys oilasiga moslashish bilan birga, ona tili, milliy taomlar, diniy amaliyotlar, bayram va marosimlar orqali o'z madaniy unsurlarini saqlashga intiladilar. Bunday sharoitda madaniy identitet yo'qolmaydi, balki yangi ijtimoiy muhitda qayta talqin qilinadi hamda transmilliy oila doirasida davom etadi.

Xulosa.

O'zbek ayollarining Koreyaga turmushga chiqish maqsadidagi migratsiyasi murakkab tarixiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, nafaqat shaxsiy qarorlar, balki demografik ehtiyojlar, institutsional mexanizmlar va gender stereotiplari ta'sirida ham shakllangan. Uning rivojlanishida Koreya qishloq hududlaridagi "kelin yetishmovchiligi", aholining qarishi, urbanizatsiya, nikoh agentliklari, immigratsiya siyosati, diaspora va raqamli tarmoqlar bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lgan.

Nikoh migratsiyasi oilaviy hayotni qayta tashkil etish, ona tilidan foydalanish, bolalarni tarbiyalash va diniy qadriyatlarni saqlash orqali madaniy uzluksizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Kundalik amaliyotlar — milliy taomlarni tayyorlash, til tanlash, bayram va marosimlarni moslashtirish hamda diniy urf-odatlariga rioya qilish — madaniy xotira va o'ziga xoslikning muhim tayanchlari bo'lib qolmoqda. Biroq til to'siqlari, huquqiy qaramlik, patriarxal oilaviy munosabatlar va ayrim hollarda kamsitish moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Natijada nikoh migratsiyasi sharoitida madaniy o'ziga xoslik yo'qolmaydi, balki yangi ijtimoiy muhitda qayta shakllanadi, transmilliy oilada saqlanib qoladi hamda rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Heikkilä E., Rauhut D. (eds.). *Marriage Migration and Multicultural Relationships*. – Turku: Institute of Migration, 2015. – P. 5. – ResearchGate
2. Cho I. M. *Marriage Migration and Multicultural Families in South Korea*. – Seoul: IOM, 2018. – P. 100.
3. Kim G., Kilkey M. Marriage Migration Policy in South Korea: Social Investment beyond the Nation State // *International Migration*. – 2018. – Vol. 56, No. 1. – P. 23–38. – White Rose Research Online
4. Kim J., Yang S.-B., Torneo A. R. Marriage Immigration and Gender in South Korea: Accounting for Gender Disparities in International Marriages // *Asia-Pacific Social Science Review*. – 2012. – Vol. 12, No. 2. – P. 14–32. – ResearchGate
5. Lee Y.-J., Seol D.-H., Cho S.-N. International Marriages in South Korea: The Significance of Nationality and Ethnicity // *Journal of Population Research*. – 2006. – Vol. 23, No. 2. – P. 165–182. – Springer
6. Odilova O. S. Migrantlarning yangi turmush sharoitlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvining xususiyatlari // *O'zbekiston va Koreya Respublikasidagi migratsiya: hozirgi holat va muammolar: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*. – Toshkent, 2023. – B. 382–386.
7. Yun Shi Ne. *Globallashuv davrida o'zbek va koreys xalqlari jamoa institutlari va marosimlaridagi o'zgarishlar: tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Toshkent, 2020. – B. 1–55.
8. Lee Y. J., Seol D. H., Cho S. N. *International Marriages in South Korea*. – Seoul: KIHASA, 2011. – P. 15. – ResearchGate
9. Statistics Korea. *2021 Statistics on the Aged*. – Daejeon: Statistics Korea, 2021. – P. 2. – Statistics Korea
10. Lee T. *Migration Data and Marriage Migrants in the Republic of Korea*. – Geneva: International Organization for Migration (IOM), 2022. – P. 3–5. – IOM publication
11. Park M.-Y. Experiencing Everyday Otherness: A Study of Southeast Asian Marriage Migrants in South Korea // *Sustainable Multilingualism*. – 2022. – No. 20. – P. 46, 49–50. – ResearchGate
12. Kim G., Kilkey M. *Marriage Migration Policy in South Korea: Social Investment beyond the Nation State*. – 2017. – P. 8, 11. – White Rose Research Online
13. Seol D.-H. Women Marriage Immigrants in Korea: Immigration Process and Adaptation // *Asian Pacific Research Forum*. – 2006. – No. 33. – P. 35, 37, 39, 55. – ResearchGate
14. Chong J. O. Soviet Korean (Koryo-in) in Central Asia and Korean Religious Activities in Post-Soviet Central Asia // *Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Dergisi*. – Ankara, 2013. – P. 215. – DergiPark
15. Son G. Social Welfare Policy for Marriage Migrants and Their Families in the Republic of Korea // *Humaniora dan Masyarakat (HAM)*. – 2025. – Vol. 16, No. 2. – P. 96, 100. – Article
16. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Namangan shahri, G'alcha MFY. – 2025-yil.
17. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Namangan tumani, Toshbuloq MFY. – 2025-yil.
18. Dala yozuvlari. Koreya Respublikasi, Kyonggi-do, Hvasong shahri. – 2022-yil.
19. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Yangisoy MFY. – 2025-yil.
20. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Namangan shahri, Yangi Obod MFY. – 2025-yil.
21. Dala yozuvlari. Koreya Respublikasi, Chungnam-do, Asan shahri. – 2024-yil.
22. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Yoshlar MFY. – 2025-yil.
23. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Namangan shahri, Rovut MFY. – 2024-yil.
24. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Namangan shahri, Hamza MFY. – 2026-yil.
25. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Namangan shahri, Osuda MFY. – 2025-yil.